

IQLIM O'ZGARISHI VA UNING SALBIY OQIBATLARI

DTPI biologiya yo'nalishi talabasi

Xo'jamova Zarina Zoir qizi

Annotasiya: Ushbu maqolada iqlim o'zgarishi, uning salbiy oqibatlari, iqlim o'zgarishining atrof-muhitga ta'siri, iqlim o'zgarishiga insonlar ta'siri, iqlim o'zgarishini oldini olish va unga qarshi kurashish choralari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Iqlim o'zgarishi, global isish, suv toshqinlari, energiya sarfi va insonlar ta'siri.

Аннотация: Климата, его негативных последствиях, влиянии изменения климата на окружающую среду, влиянии человека на изменение климата, а также мерах по предотвращению и борьбе с изменением климата.

Ключевые слова: изменение климата, глобальное потепление, наводнения, потребление энергии и воздействие человека.

Abstract. This article provides information about climate change, it is negative consequences the impact of climate change on the environment, the impact of humans on climate change, how to prevent, and combat climate change.

Key words: Climate change, global warming, floods, energy consumption and human impact.

Iqlim o'zgarishi (shuningdek, global isish) – butun dunyodagi o'rtacha haroratning davomli o'sishi va uning Yer iqlimiga o'tkazadigan ta'siri. Global haroratning hozirgi davrdagi ko'tarilishi inson faoliyati, xususan, sanoat inqilobidan beri qazib olinayotgan yoqilg'ining yoqilishi bilan bog'liq. Qazib olingan yoqilg'idan foydalanish, o'rmonlarni kesish va ba'zi qishloq xo'jaligi va sanoat amaliyotlari iqlim o'zgarishiga sabab bo'luvchi issiqxona gazlarini chiqaradi. Global isishda asosiy rol o'ynayotgan issiqxona gazi bo'lmish karbonat angidrid millionlab yillar davomida kuzatilmagan darajada, taxminan, 50%ga o'sdi. Iqlim o'zgarishi atrof-muhitga tobora katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, cho'llar kengaymoqda, issiq to'lqinlar va o'rmon yong'inlari keng tarqalmoqda. Arktikadagi havo haroratining ko'tarilishi abadiy muzliklarning erishiga sabab bo'ldi. Yuqori haroratlar kuchli bo'ronlar, qurg'oqchilik va boshqa ob-havo sharoitlariga ham sabab bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi odamlarga suv toshqini, haddan tashqari issiqlik, oziq-ovqat va suv tanqisligining kuchayishi, turli xil kasalliklar va iqtisodiy yo'qotishlar bilan tahdid qilmoqda. Iqlim o'zgarishiga inson migratsiyasi va mojarolar ham ta'sir o'tkazmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti iqlim o'zgarishini 21-asrda global

sogʻliq uchun eng katta tahdidlardan biri deb atadi. Toshqinga qarshi choralar koʻrish, qurgʻochilikka chidamli ekinlar ekish kabi saʼy-harakatlar orqali iqlim oʻzgarishiga moslashish iqlim oʻzgarishi xavfini qisman kamaytiradi. Kambagʻal hudud aholisi garchi iqlim oʻzgarishiga eng kam taʼsir oʻtkazayotgan boʻlsa-da, eng koʻp zarar koʻrmoqda. 21-asrning birinchi oʻn yilliklarida iqlim oʻzgarishining koʻplab oqibatlarini yuzaga keldi: muntazam kuzatuv boshlangan 1850-yil bilan solishtirganda, 2023-yilda issiqlikning rekord darajada koʻtarilishi (+1,48 °C) yuzaga keldi. Bu kabi issiqlikning koʻtarilishi ayni damdagi holatni yanada battarlashishiga hissa qoʻshishi, hatto Grenlandiya muz qatlami (ingl.) oʻzb.ning erishi kabi katta oʻzgarishga sabab boʻlishi mumkin. 2015-yilgi Parij kelishuvida davlatlar global isishni „2 °C dan past“ ushlab turishga kelishib olgan boʻlsa-da, vaziyat hozirgi holatdan oʻzgarmay davom etsa, asr oxirida global isish 2,8 °C ga yetadi. Global isishni 1,5 °C gacha tushirish uchun davlatlar 2030-yilgacha chiqarayotgan gazlarini ikki baravar kamaytirishi va 2050-yilga kelib esa turli xil gazlarni chiqarishni butunlay toʻxtatishi kerak. Energiyani tejash va uglerod ifloslanishini keltirib chiqarmaydigan energiya manbalariga oʻtish orqali qazib olinadigan yoqilgʻidan foydalanishni bosqichma-bosqich toʻxtatish mumkin. Bu kabi energiya manbalariga shamol, quyosh, suv va atom energiyasi kiradi. Ushbu energiya manbalari transport, binolarni isitish va sanoat jarayonlarida qazilma yoqilgʻi oʻrnini bosishi mumkin. Uglerod miqdorini atmosferada ham kamaytirish mumkin. Bu uchun oʻrmon maydonlarini kengaytirish va tuproqdagi uglerodni ushlash usullari bilan dehqonchilik qilish kerak.

Xulosa qilib aytganda, iqlim oʻzgarishi zamonaviy dunyoning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Iqlim oʻzgarishi, daraxtlarning kesilishi, global isish, suv toshqinlari esa atrof-muhitga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ushbu muammoni samarali hal qilish uchun iqlim oʻzgarishiga qaratilgan xalqaro hamkorliklar, mahalliy darajada ekologik boshqaruv va barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish zarur. Iqlim oʻzgarishini oldini olish va unga qarshi kurashish orqali murakkab muammolarni hal qilish va kelajak avlodga sogʻlom atrof-muhitni qoldirish mumkin boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova, S.T Shojalilov, Bader O.A Atrof-muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi-Toshkent "Istiqlol" 2002 y 112 b.
2. Petrov Y.V, Egamberdiyev H.T Alautdinov M, Xolmatjanov B.M Iqlimshunoslik-Toshkent 2010-168 b.



3.Akbarov.A, Nazaraliyev D, Jumaboyeva A.G Iqlimshunoslik -Toshkent 2015.124 b.

4.Jabborov B.T,Xalillayev Sh.A,Zayniddinov V.V „Iqlim o‘zgarishi va ekologik moslashuv’’ Toshkent 2022,212 b.

5.Berdin V,Grachyova E Iqlim o‘zgarishi o‘quv qo‘llanma Taraqqiyot Dasturi 2019.300 b.